

Bolalar Muqaddas Kitobi

Tasvirlab beradi

Dehqon va
Urug'



...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan ilustrasiya qilingan:

M. Maillot; Lazarus

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan:

E. Frischbutter; Sarah S.

Alastair Paterson

...tomonidan ishlab chiqarilgan: Bible for Children

www.M1914.org

BFC

PO Box 3

Winnipeg, MB R3C 2G1

Canada

©2020 Bible for Children, Inc.

Lisenziya: Bu hikoyani chop etishingiz yoki nusxa ko'chirishingiz mumkin.
Lekin u sotilmaydi.



Bir kuni Iso ko'l bo'yida ta'lim berayotgan edi. Ko'pgina odamlar Uning so'zlarini eshitish uchun yig'ilishdi.

Odamlar nihoyatda ko'payib ketdi. Endi Iso nima qilarkan?




Iso oldidagi qayiqni ko'rib qoldi,
va qayiqqa chiqib oldi. Endi U
odamlarni ko'ra olar, odamlar
esa Uni eshita olishardi.




Iso ularga masallar aytib berdi.
Masallar oddiy narsalar haqidagi
hikoyalar bo'lib, Xudo haqida
ta'lib berishda qo'llanilardi.



"Bir dehqon dalaga urug' sochibdi."
Isoning hikoyasi so'zlar yordamida
chizilgan rasm kabi edi.



Odamlar dalada ishlayotgan dehqonni
tasavvur qila olishardi - axir ular
dehqonlarni ko'p
ko'rishgandi-da.






Sochilgan urug'larning
ba'zilari yo'lakka tushibdi.
Shuv! Qushlar darrov

uchib kelib u urug'larni
yeb qo'yishibdi.




Ba'zi urug'lar dalaning toshloq joyiga kelib tushibdi. Ular tez o'sib chiqqan bo'lsada, uzun va nimjon bo'libdi. Tez orada quyosh ularni quritib tashlabdi, chunki sayoz tuproqda ular tomir otolmabdi.




Boshqa urug'lar tikanlar
orasida ildiz otibdi.
U urug'lar hosil bermabdi.
Tikanlar yosh nihollarni
siqib qo'yib, ular uchun
zarur bo'lgan quyosh
nuri va yomg'irni
to'sib qo'yibdi.




Urug'ning qolgani esa yaxshi
tuproqqa tushibdi. Vaqt o'tib, ular sog'lom
o'sib ko'p don hosilini beribdi.




Hikoya tugagandan so'ng shogirdlar Isoning oldiga kelishdi. "Sen nega masallar orgali ta'lim beryapsan?" so'rashdi ular.



Ular Xudoni haqiqatdan sevishsa, bu masallar Uni tushunishda yordam beradi, deb javob berdi Iso. Xudoni sevmaydigan odamlar bu masallarni tushunishmaydi.




Shunda Iso masalni
tushuntirib berdi. Urug' - bu
Xudoning Kalomi, dedi U.




Yo'lakka tushgan urug' bu Xudo
Kalomini eshitib, lekin tushunmaydigan
odamdir. Shayton bunday odamlarni

Xudoning
aytgan
so'zlarni


unutishiga
undaydi.




Ba'zilar Xudoning Kalomini tezgina qabul qilishadi. Ular toshloqqa tushgan urug' kabidir. Kimdir ularni masqara qilsa, yoki Xudoni sevishiga qarshilik qilsa, achinarli hodisa sodir bo'ladi.



Bunday odamlar quvonch bilan Isoning orqasidan ergashishgan bo'lsa-da, endi undan tonib, Xudoning Kalomiga rioya qilishni to'xtatishadi.



Ular Xudoga ergashish
qiyinchiliklarini qabul qilisholmaydi.
Achinarlisi shundaki, ular Xudodan
ko'ra do'stlarini xushnud qilishni
tanlashadi.



Masaldagi
tikanlar
kabi dunyo
tashvishlari va
pulparastlik ba'zi
insonlar hayotini
egallab oladi. Ular
ko'proq pul ishlash va
boshqa narsalarga
erishish bilan
shunchalar bandki,
Xudoni tashlab
ketishadi.



Yaxshi tuproqqa tushib, mo'l hosil bergan urug'lar esa Xudo Kalomini qalbiga qabul qilib, hayoti o'zgarayotgan odamlardir. Bundaylar Xudoga xizmat qilib, Uni e'zozlashadi.



Olomon ketishni xohlamadi. Ko'plar Xudoga ergashib, Uni xushnud qilishni istashardi. Isoning masallari ularga Xudoga qanday bo'ysunishni tushunishda yordam berdi.



Dehqon va Urug'

Hikoya Xudo Kalomi Injildan olingan

...dan topilgan

Matto 13


"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."

Zabur 119:130



Hikoya tugadi

43



60



Bu Kalomdagi Hikoya bizlarga, Xudoning bizlarni ajoyib qilib yaratganligi haqida va biz Uni tanib bilishimiz qanchalik muhim ekanligi haqida hikoya qilib beradi.

Xudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim lekin Xudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun xochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Unga ishongan kishi halok bo'lmaydi balki abadiy hayotga ega bo'ladi. Agar siz Isoga ishonsangiz, Undan gunohlaringiz uchun kechirim so'rang, U gunoharingizni kechiradi. U sizning yuragingizga kelib yashaydi va siz U bilan abadiy yashaysiz.

Agar siz bu so'zlar haqiqatligiga
ishonsangiz, Xudoga shunday deb ayting:

Qadrli Iso, Men Sening Xudoliginga ishonaman, Sen yer yuziga kelib mening gunohlarim uchun o'lding, va Sen yana hozir tiriksan va bir kuni men sen bilan abadiy bo'laman. Men hozir yangi hayot bilan yashayman, iltimos mening hayotimga kel, men Senga itoat qilishim uchun va Sening farzanding bo'lishim uchun yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Xudo bilan har kuni suhbatlashing!
Yuhanno 3:16

